

MAN avtobuslarida sodir bo'layotgan nosozliklar va ularning tiklash jarayoni

Kuchkarov Xurshid (magistrant)

Ilmiy rahbar: dots Kodirshoyev T

2018-yil 6 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev PQ-3589-sonli «Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini imzoladi. Qarorga muvofiq harakatdagi tarkibni zamonaviy, qulay avtobuslar, mikroavtobuslar, yuk avtomobillari bilan yangilash, yo'nalishlarni oqilona tashkil etish va kengaytirish, tashishlar xavfsizligi choralari kuchaytirish hisobiga aholining avtomobil tashishlariga ehtiyojini imkon qadar to'laqonli ta'minlash avtomobil transportini rivojlantirishning asosiy yo'nalishidir.


Qarorda 2018-2021 yillarda 437 ta yangi yo'lovchi yo'nalishlarini tashkil etish hamda 84 ta avtovokzal va avtostansiyani qurish va rekonstruksiya qilishning, iqtisodiyot sohalari va aholining respublika chekka mintaqalarida tashishlarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan. Umumiy foydalanishdagi yo'lovchilar tashishlarni amalga oshirishni onlayn tarzda avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimini tezkor xizmatlar tizimlari bilan integrallashgan holda yaratish va joriy etish.

Hozirda aholiga yaxshi xizmat ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatida MAN A22 avtobuslari ishlab chiqilmoqda va Toshkent shahri aholisiga 2017- yildan beri xizmat ko'rsatib kelmoqda. O'tgan davrda MAN avtobuslarini texnik holatini yaxshi saqlab turish va aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularga texnik servis ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bajarilib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay yo'nalishga chiqqan avtobuslarda nosozliklar paydo bo'lib korxonaga qaytib kelish hollari kuzatilmoqda

Shuni hisobga olgan holda biz 3 oy davomida **2-Avtobus saroyida** tekshiruv kuzatuv ishlarini olib borildi va natijalar jadvalda keltirildi.

Kuzatilgan buzilish va nosozliklar

Nº	Nosozliklar nomi	Garaj nomeri	Nosozliklar soni	Foizda %
1	Shina	144; 144; 145; 145; 147; 139	6	11.5
2	Gaz ta'minot tizimi	354; 357; 354; 354; 357; 143; 357; 139; 353; 143; 355; 145; 356; 355; 357; 359; 352.	17	32.7
3	Navbatdagi texnik servis	359; 351; 351; 358; 359; 360; 361; 357; 140.	9	17.3
4	Sovutish tizimi	361; 140; 143; 141; 139; 141; 139	7	13.5
5	Tormoz sistemasi	141; 147; 360; 144;	4	7.7
6	Elektrotexnika	148; 141; 353;	3	5.8
7	Paddon va kapor titrashi	146; 146; 356; 142; 146	4	7.7
8	Kardan ishlari	139.	1	1.9
9	Diagnostika	139.	1	1.9
Jami			52	100



Rasm. MAN avtobuslarining yo'nalishdan qaytib kelishdagi nosozliklarni taqsimoti.

Yo'nalishdan qaytgan avtobuslarning nosozliklarini tahlili shuni ko'rsatdiki eng ko'p nosozlik gaz ta'minoti tizimiga to'g'ri keldi (32,2 %). Undan keyingi nosozliklar sovutish tizimi (13,5 %), va shina (11,5 %) to'g'ri keldi.

Sodir bo'lgan nosozliklar quyidagi tartibda tuzatiladi:

AS larda MAN rusumli avtobuslarda asosan eng ko'p nosozlik gaz ta'minoti tizimida kuzatildi. Nosozlikni bartaraf etish uchun 2-AS da yoki 8-AS da MAN servisdan bartaraf etiladi.

MAN avtobusidagi nosozliklar maxsus diagnostika vositalari orqali diagnostika qilinadi nosozlik aniqlanadi.

Agar MAN avtobuslaridagi nosozliklar servisdan bartaraf etib bo'lmasa Samarqand MAN avtobus zavodidan maxsus mexaniklar chaqirtiriladi va nosozlik bartaraf etiladi.

Mexaniklar ham bartaraf eta olmasa diagnostikadan olingan natijalarni rasmga olingan xolatda Germaniyadagi MAN avtomobil zavodi servis markaziga jo'natiladi ular nosozlikni aniqlab O'zbekistondagi MAN avtobus servisiga nosozlikni tuzatish uchun maxsus tavsiyalar beriladi va nosozlik bartaraf etiladi.

Xulosa va takliflar:

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida MAN avtobuslarida eng ko'p uchragan nosozlik bu gaz ta'minot tizimi bo'yicha kelib chiqadigan nosozliklar. Bu nosozliklarni bartaraf etish uchun gaz ta'minoti bo'yicha maxsus diagnostika o'tgazishni joriy qilishni tashkil etish tavsiya etiladi yoki reja asosida gaz ta'minoti tizimiga ma'lum muddatda majburiy ko'rik tashkil etish tavsiya etiladi. Gaz ta'minoti tizimini tekshirish uchun maxsus diagnostika qurilmalariga bo'lgan ehtiyojni etiborga olgan holda talabga qarab diagnostika qurilmalarini sotib olishni tashkil etish kerak va majburiy ravishda MAN avtobuslarini diagnostika ko'rigidan ma'lum muddatda o'tkazib turish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 6-martdagi PQ-3589 sonli «Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. O'zA agentligi. 2018 y.